INTERNET TARMOG'IDA MUALLIFLIK HUQUQI HIMOYA QILISH USULLARI

Qambaraliyev A’zamjon Rasuljon o‘g‘li,

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

ORCID ID: 0009-0002-1260-1957

azamjon.kambaraliev@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunining 65-moddasi doirasida internet tarmog‘ida mualliflik huquqlari buzilganda huquq egalarining buzilgan huquqlarini sudda himoya qilishning asosiy usullari ilmiy-huquqiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Maqolada mulkiy va nomulkiy huquqlarni tiklash, qonunchilikda keltirilgan himoya usullari va internet tarmog‘ida mualliflik huquqlari buzilganda himoya qilishning o‘ziga xos usullari tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqot O‘zbekiston qonunchiligi, va boshqa davlatlar tajribasi asosida amalga oshirilgan bo‘lib, raqamli muhitda mualliflik huquqi himoyasini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *mualliflik huquqi, internet, boy berilgan foyda, tovon, intellektual mulk, raqamli boshqarish huquqlari, internet tarmog‘ida qaroqchillik.*

XXI asrning raqamli inqilobi intellektual faoliyat natijasida vujudga kelgan mahsulotlarni tarqatish va ulardan foydalanish shakllarini tubdan o‘zgartirdi. Internet tarmog‘i bir tomondan mualliflar uchun o‘z ijodini ommaga keng yoyishga beqiyos imkoniyatlar yaratdi, ikkinchi tomondan esa mualliflik huquqlarining ommaviy ravishda buzilishi uchun qulay maydon hosil qildi.[1] Bugungi kunda bitta noto‘g‘ri bosilgan tugma orqali millionlab foydalanuvchilarga nusxa ko‘chirish, tarqatish va o‘zgartirish imkoniyati ochiladi, bu esa huquq egasiga jiddiy moddiy va ma’naviy zarar yetkazilishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi 2006-yilda “Mualliflik va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunni yangi tahrirda qabul qilib, xalqaro standartlarga mos intellektual mulk himoyasining huquqiy poydevorini qo‘ydi. Qonunning 65-moddasi mualliflik huquqlari buzilganda huquq egalariga taqdim etiladigan huquqiy himoya usullarini belgilab beradi. Biroq raqamli muhitda ushbu normani qo‘llash o‘ziga xos murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, huquqzbuzarlik natijasida huquq egasiga yetkazilgan zararni hisoblash, huquqni tiklash va tovon talab qilinganda uni sud tomonidan hisoblashdagi noaniqliklar.

Ushbu maqolaning maqsadi 65-modda mazmunini tahlil etish, uni internet muhitida qo'llashning xususiyatlarini aniqlash va huquq egasi uchun samarali sud himoyasi strategiyasini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot usullari sifatida huquqiy tahlil, qiyosiy huquqshunoslik va yuridik amaliyot tahlilidan foydalanilgan.

An’anaviy mualliflik huquqi nazariyasi jismoniy nusxalar va moddiy tashuvchilar tushunchasiga asoslanadi. Internet esa asarni turli shaklada va nusxa ko‘chirmagan holda tarqatish imkoniyatini yaratadi: foydalanuvchi faylni serverdan strim orqali ko‘rishi yoki eshitishi mumkin, bunda texnik jihatdan nusxa ko‘chirilmaydi. Bu holat mualliflik huquqi qamrab oladigan harakatlar doirasini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etdi.

O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasida “**barchaning e’tiboriga yetkazish**”, “**barchaning e’tibori uchun yuborish”, “tarqatish”, “omma oldida ijro etish” va “efirga uzatish”** tushunchalarini belgilaydi. Mualliflik huquqi obyekti hisoblangan asarni internet tarmog‘iga ochiq joylashtirish masalasi hozirda muhim va dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Amaldagi xalqaro va milliy huquq normalariga ko‘ra, bunday harakat muallifning roziligisiz amalga oshirilsa, odatda mualliflik huquqining buzilishi sifatida baholanadi.

Mualliflik huquqi mazmunan muallifga o‘z asaridan foydalanish ustidan mutlaq (eksklyuziv) huquqlarni beradi[2]. Bu huquqlar jumlasiga asarni ko‘paytirish, tarqatish, qayta ishlash va, ayniqsa, uni barchaning e’tiboriga yetkazish huquqi kiradi. Internet tarmog‘i orqali asarni ochiq joylashtirish aynan “barchaning e’tiboriga yetkazish” yoki “barchaning e’tibori uchun yuborish” shakli sifatida talqin qilinadi. Bunda asar cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun erkin kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa muallifning nazoratisiz foydalanish xavfini oshiradi.

Xalqaro huquqiy hujjatlar ham ushbu masalaga aniq yondashadi. Jumladan, Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to‘g‘risida Bern konvensiyasi hamda BIMTning Mualliflik shartnomasi doirasida mualliflarga asarni barchaning e’tiboriga yetkazish ustidan mutlaq huquq berilgan[3]. Bu esa shuni anglatadiki, asarni internetga joylashtirish faqat muallif yoki huquq egasining roziligi bilan amalga oshirilishi lozim.

Milliy qonunchilik ham mazkur yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi. O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunning 19-moddasiga muvofiq, asardan har qanday usulda foydalanish, shu jumladan uni internet tarmog‘ida e’lon qilish yoki joylashtirish faqat muallif yoki huquq egasining mutlaq huquqi hisoblanib, faqat uning ruxsati asosida amalga oshiriladi. Agar bunday rozilik olinmagan bo‘lsa, ushbu harakat noqonuniy hisoblanadi va huquqbuzarlik sifatida e’tirof etiladi.

Ilmiy adabiyotlarda ham bu masala keng o‘rganilgan bo‘lib, internet muhitida mualliflik huquqlarining eng ko‘p buziladigan shakllaridan biri aynan asarlarni ruxsatsiz joylashtirish ekanligi ta’kidlanadi. Chunki raqamli texnologiyalar asarlarni nusxalash va tarqatishni nihoyatda osonlashtiradi, natijada muallifning iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazilishi mumkin.

Shu bilan birga, ayrim istisno holatlar ham mavjud. Masalan, qonunchilikda nazarda tutilgan erkin foydalanish hollari (ilmiy iqtibos keltirish, ta’lim maqsadlarida foydalanish) yoki ochiq litsenziyalar asosida asarni joylashtirish qonuniy bo‘lishi mumkin. Biroq bunday istisnolar qat’iy shartlar bilan cheklangan va har bir holat alohida baholanishi lozim.

Amaliyot tahlili internet muhitida mualliflik huquqlarining buzilishlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Ushbu holatlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, raqamli muhitda mualliflik huquqi buzilishlari an’anaviy shakllarga nisbatan murakkabroq va ko‘p qirrali tus olgan.

Avvalo, ruxsatsiz ko‘chirish (qaroqchilik) va tarqatish internetdagi eng keng tarqalgan huquqbuzarlik turi hisoblanadi. Bu holatda asar muallifning roziligisiz turli platformalarga joylashtiriladi va keng auditoriyaga taqdim etiladi. Raqamli texnologiyalar sababli bunday harakatlar juda tez va katta hajmda amalga oshiriladi, natijada muallifning iqtisodiy manfaatlariga sezilarli zarar yetadi. Ayniqsa, torrent (foydalanuvchini himoya qiluvchi) saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali noqonuniy tarqatish nazoratni qiyinlashtiradi.

Ruxsatsiz o‘zgartirish esa muallifning nafaqat mulkiy, balki shaxsiy nomulkiy huquqlariga ham daxl qiladi. Asarni tahrirlash, qisqartirish yoki tarjima qilish jarayonida uning mazmuni buzilishi mumkin. Bu esa muallifning obro‘siga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Huquqiy nuqtai nazardan, muallif asar daxlsizligini ta’minlash huquqiga ega bo‘lib, har qanday o‘zgartirish uning roziligi bilan amalga oshirilishi kerak.

Mualliflikni o‘g‘irlash, ya’ni plagiat, ilmiy va ijodiy sohada eng jiddiy huquqbuzarliklardan biri hisoblanadi. Bu holatda shaxs boshqa muallifning asarini o‘z nomidan taqdim etadi. Natijada asl muallifning huquqlari buziladi va uning mehnati e’tirof etilmaydi. Internetda axborotning erkin tarqalishi plagiatni

aniqlashni qiyinlashtirishi mumkin, biroq zamonaviy texnologiyalar (masalan, plagiat aniqlovchi tizimlar) bu muammoni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Texnik himoya choralarini chetlab o‘tish, xususan DRM (raqamli boshqaruv huquqi) tizimlarini buzish, mualliflik huquqlarini himoya qilishga qaratilgan mexanizmlarga qarshi harakat hisoblanadi.[4] Bu turdagi huquqbuzarlik odatda maxsus bilim va dasturiy vositalarni talab qiladi va ko‘pincha tijorat maqsadida amalga oshiriladi. Bunday harakatlar nafaqat muallifning, balki kontentni tarqatuvchi platformalarning ham manfaatlariga zarar yetkazadi.

Metama’lumotlarni o‘chirish esa nisbatan kamroq e’tibor qaratiladigan, lekin muhim huquqbuzarlik turidir. Asarga oid mualliflik, manba yoki litsenziya haqidagi ma’lumotlarni olib tashlash orqali asarning kelib chiqishini aniqlash qiyinlashadi. Bu esa keyinchalik boshqa turdagi huquqbuzarliklar, xususan plagiat yoki noqonuniy tarqatish uchun sharoit yaratadi.

Umuman olganda, keltirilgan tasnif internet muhitida mualliflik huquqlarining buzilishi ko‘p bosqichli va o‘zaro bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Ko‘pincha bir turdagi huquqbuzarlik boshqasiga sabab bo‘ladi yoki ular birgalikda sodir etiladi. Shu bois, mualliflik huquqlarini samarali himoya qilish uchun nafaqat huquqiy choralar, balki texnologik va tashkiliy mexanizmlarni ham kompleks qo‘llash zarur.

“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunning 65-moddasi mualliflik huquqi va turdosh huquqlar buzilganda huquq egasiga beriladigan **fuqaroviy-huquqiy himoya vositalarini** aniq va tizimli tarzda belgilab beradi. Ushbu talablarni ilmiy jihatdan tahlil qilganda, ular bir necha asosiy yo‘nalishga bo‘linishini ko‘rish mumkin.

Birinchidan, huquqlarni tan olish talabi mualliflik huquqining shaxsiy (nomulkiy) jihatini himoya qilishga qaratilgan. Bu talab orqali muallif yoki boshqa

huquq egasi o‘zining asar ustidan egalik huquqini rasmiy ravishda e’tirof ettirishga erishadi. Amaliyotda bu, masalan, muallif nomini tiklash yoki noto‘g‘ri ko‘rsatilgan mualliflikni tuzatish shaklida namoyon bo‘ladi. Bu choralar muallifning obro‘si va sha’nini tiklashda muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, huquqbuzarlikdan oldingi holatni tiklash va huquqbuzarlikni to‘xtatish talabi preventiv va restavratsion xarakterga ega. Ya’ni, bu yerda nafaqat sodir etilgan huquqbuzarlik oqibatlarini bartaraf etish, balki kelgusida uning davom etishining oldini olish maqsadi ham ko‘zda tutiladi. Masalan, noqonuniy joylashtirilgan kontentni internetdan olib tashlash, uning tarqatilishini bloklash yoki nusxalarini yo‘q qilish shular jumlasidandir.

Uchinchidan, zararlarni qoplash talabi mualliflik huquqining iqtisodiy (mulkiy) jihatini himoya qiladi. Bu yerda ayniqsa “boy berilgan foyda” tushunchasi muhim hisoblanadi. Ya’ni, huquq egasi o‘z huquqlari buzilmaganida odatdagi sharoitlarda olishi mumkin bo‘lgan daromadni talab qilishga haqli. Agar huquqbuzar noqonuniy foydalanish natijasida daromad olgan bo‘lsa, ushbu daromad ham kompensatsiya hisoblashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuv huquqbuzarning noqonuniy foyda ko‘rishining oldini olishga qaratilgan.

To‘rtinchidan, qonunchilikda zarar yetkazilgan yoki yetkazilmaganidan qat’i nazar, **kompensatsiya (tovon)** undirish imkoniyati nazarda tutilgan. Bu institutning o‘ziga xos jihati shundaki, huquq egasi real zarar miqdorini isbotlashda qiynalgan taqdirda ham belgilangan chegaralar doirasida (bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan 1000 baravarigacha) tovon talab qilishi mumkin. Bu esa ayniqsa internet muhitida, zarar hajmini aniq hisoblash qiyin bo‘lgan holatlarda juda muhim mexanizm hisoblanadi.

Internet tarmog‘ida mualliflik huquqlarini himoya qilish masalasi zamonaviy huquqshunoslikda dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu borada milliy qonunchilik,

xususan “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunning 65-moddasida nazarda tutilgan normalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu modda huquq egasiga o‘z huquqlarini tiklash, buzilishni to‘xtatish va zararlarni qoplashni talab qilish imkonini beradi. Shu asosda quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, Internet tarmog‘ida mualliflik huquqini himoya qilish faqatgina ushbu modda belgilangan usullardan tashqari texnik vositalardan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Bunda AQSHning 1998-yilda qabul qilingan “Raqamli ming yillik mualliflik huquqi to‘g‘risida” (Digital Millenium Copyright Act)gi federal qonuni o‘rganish va joriy qilish masalalarini ko‘rib chiqish lozim. Bu orqali platformalarga mualliflik huquqi buzilishi holatlari aniqlanganda mualliflik huquqini himoya qiluvchi maxsus tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati yaratiladi.[5] Bu holat internet tarmog‘ida mualliflik huquqini buzilishini erta aniqlash va chek qo‘yish, mualliflik huquqi buzilganda tezkor xabar berish mexanizmini yaratish, huquqbuzar daromadlarini huquq egasi foydasiga monetizatsiya (daromadni yo‘naltirish) qilish imkonini beradi. Internet platformalarida mualliflik huquqlarini buzilishining oldini olish maqsadida “tezkor ogohlantirish va olib tashlash” (notice-and-takedown) tizimini milliy darajada takomillashtirish zarur. Amaldagi 65-modda huquqbuzarlikni to‘xtatishni talab qilish huquqini beradi, biroq internet muhitida bu jarayon ko‘pincha sust amalga oshiriladi. Shu sababli, huquq egasining murojaati asosida noqonuniy joylashtirilgan kontentni qisqa muddatlarda (masalan, 24–48 soat ichida) majburiy tarzda o‘chirish mexanizmini qonunchilik darajasida aniq belgilash maqsadga muvofiq. Bu taklif huquqbuzarlikni tezkor bartaraf etish orqali zararlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, zararlarni qoplash va kompensatsiya undirish mexanizmlarini internet muhitiga mos ravishda aniqlashtirish lozim. Qonunning 65-moddasida boy berilgan foyda va tovon undirish nazarda tutilgan bo‘lsa-da, amaliyotda internet

orqali yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash murakkab va odatiy tarqatishga nisbatan og‘irroq hisoblanadi. Shu bois, raqamli platformalar faoliyatidan kelib chiqib, minimal kompensatsiya stavkalarini belgilash, shuningdek, huquqbuzarning noqonuniy daromadini aniqlash uchun maxsus metodikalarni ishlab chiqish zarur. Bu esa huquq egalarining manfaatlarini samarali himoya qilish bilan birga, huquqbuzarlar uchun iqtisodiy javobgarlikni kuchaytiradi.

Uchinchidan, mualliflik huquqlarini himoya qilishda texnologik vositalardan foydalanishni kengaytirish taklif etiladi. 65-moddada huquqbuzarlikni to‘xtatish talabi mavjud bo‘lib, uni amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalar, xususan, avtomatik kontentni aniqlash tizimlari (content ID), raqamli watermark va DRM vositalarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Davlat darajasida internet platformalariga bunday texnologiyalarni joriy etish majburiyatini bosqichma-bosqich yuklash orqali huquqbuzarliklarning oldini olish mumkin. Bu taklif preventiv xarakterga ega bo‘lib, huquqbuzarlik sodir bo‘lishidan oldin uni aniqlash va cheklash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-42-son Qonuni, 2006-yil. https://lex.uz/ru/docs/-1022944
2. Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to‘g‘risida Bern konvensiyasi, 1971-yil. https://lex.uz/mact/-1310607
3. Butunjahon intellectual mulk tashkilotining Mualliflik huquqi shartnomasi, 1996-yil. https://www.wipo.int/wipolex/en/text/295157
4. H.R.2281 - Digital Millennium Copyright Act (DMCA), 1998. https://www.congress.gov/bill/105th-congress/house-bill/2281

5. I.B.Yakubova. Mualliflik huquqi, O‘quv qo‘llanma. – T: TDYU nashriyoti, 2020. -120 bet.
6. Yakubova I.B. Xalqaro intellektual mulk huquqi, O‘quv qo‘llanma. – T: TDYU nashriyoti, 2023. -224 bet.
7. I. Rustambekov, S. Gulyamov, A. Ubaydullaeva. Intellectual property in the digital age. Darslik. T: TDYU nashriyoti, 2025. -456 bet.
8. Ficsor M. The Law of Copyright and the Internet. – Oxford University Press, 2002.
9. К вопросу об охране авторских прав в сети Интернет. Наталия Валерьевна Горина. Juridical Science and Practice, 2023, vol. 19, No. 1.
10. Энтин В. Л. Авторское право в виртуальной реальности (новые возможности и вызовы цифровой эпохи). М.: Статут, 2017.

[1] Энтин В. Л. Авторское право в виртуальной реальности (новые возможности и вызовы цифровой эпохи). М.: Статут, 2017. 21-с.

[2] O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-42-son Qonuni 19-moddasi, 2006-yil. https://lex.uz/ru/docs/-1022944

[3] Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to‘g‘risida Bern konvensiyasi 11ter-moddasi, 1971-yil. https://lex.uz/mact/-1310607

[4] I. Rustambekov, S. Gulyamov, A. Ubaydullaeva. Intellectual property in the digital age. Darslik. T: TDYU nashriyoti, 2025. 76-b.

[5] H.R.2281 - Digital Millennium Copyright Act (DMCA) Title II: Online Copyright Infringement Liability Limitation, 1998. https://www.congress.gov/bill/105th-congress/house-bill/2281